



PRAGMATIKA VA STILISTIKA ALOQADORLIGI (“ONA BO’RI QASOSI” TO‘PLAMIDAGI HIKOYALAR MISOLIDA)

*Bahronova Sevinch Jahongir qizi Sharof Rashidov nomidagi Samarqand davlat universiteti Markaziy Osiyo xalqlari tillari va madaniyati instituti 4-bosqich
401-guruh talabasi,
[e-mail:Sevinchbakhronova@gmail.com](mailto:Sevinchbakhronova@gmail.com)*

Annotatsiya: Mazkur maqolada pragmatika va stilistika yo‘nalishlarining o‘zaro bog‘liqligi tahlil qilinadi. Tahlil obyekti sifatida Tursunmurod Ermatovning “Ona bo’ri qasosi” to‘plamiga kiruvchi hikoyalar tanlandi. Muallifning badiiy maqsadi va uslubiy tanlovi o‘rtasidagi uzviylik ochib beriladi. Asarda ishlatilgan badiiy ifoda vositalari, dialog, tasviriy tafsilot va ohang elementlari yozuvchining pragmatik niyatini ro‘yobga chiqaruvchi stilistik vositalar sifatida tahlil qilinadi.

Kalit so‘zlar: pragmatika, stilistika, badiiy matn, ifoda vositasi, tazod, dialog, maqsad, niyat, tahlil.

Kirish. Tilshunoslikda pragmatika va stilistika tushunchalari nutqning ikki muhim qirrasini – mazmuniy niyat va badiiy ifodani o‘zida mujassam etadi.

Pragmatika **Pragmatika** (yunoncha *pragma*, *pragmatos* — *ish, harakat*) — semiotika va tilshunoslikning nutqda til belgilarining amal qilishini o‘rganuvchi sohasi; boshqacha aytganda, muayyan belgilar tizimini o‘zlashtirib, undan foydalanuvchi sub’yektlarning ayni shu belgilar tizimiga munosabatini o‘rganuvchi fan tarmog‘i. So‘zlovchi yoki muallifning kimga, nima maqsadda murojaat qilayotganini, ya’ni nutqning kommunikativ maqsadini o‘rganadi. Stilistika esa bu maqsadni amalga oshirish uchun tanlangan badiiy vositalar, tildagi ta’sir kuchi va ohangni tahlil qiladi.



Ushbu maqolada Tursunmurod Ermatovning “Bozordagi bola” hikoyasi misolida bu ikki soha o‘rtasidagi aloqadorlik yoritiladi. Asarda muallifning asosiy niyati –insoniy mehr, yolg‘izlik, jamiyatdagi befarqlik muammosini ko‘rsatishdir. Bu niyatning o‘quvchiga yetib borishida stilistik tanlov hal qiluvchi rol o‘ynaydi.

Asosiy qism. Pragmatika til birliklarining muloqotdagi ta’sir yo‘nalishini, ya’ni so‘zlovchining “nimani, kimga va nima uchun” degan savollarga javobini beradi.

Stilistika esa (yun. Stylos – yozuv, xat tayoqchasi) degan ma’noni bildiradi, uslubshunoslik uslubiya – tilshunoslikning til uslublarini tadqiq etuvchi, tilning leksik-frazeologik, fonetik, morfologik, so‘z yasalishi va sintaktik sathlarda sinxroniya va diaxroniya nuqtayi nazaridan funksional qatlamlanishining mohiyati va o‘ziga xosliklarini o‘rganuvchi, adabiy tilni turli lisoniy vaziyatlarda, yozma adabiyotning xilma-xil tur va janrlarida, ijtimoiy hayotning turli sohalarida qo‘llash me’yorlari va usullarini tavsiflovchi tarmog‘i. Stilistikada parallel sinonimik til ifodalaridagi ma’noviy va ekspressiv nozikliklar, lisoniy birliklarning o‘zaro munosabatdosh variantlari o‘rganiladi. Bunday variantlarda ular orasidan muayyan nutqiy vaziyat uchun zarur bo‘lganini tanlab olish imkoniyati mavjud bo‘ladi. Xulosa qilib aytganda, shu maqsadga xizmat qiluvchi ifoda shakllarini – so‘z tanlovi, sintaktik qurilish, intonatsiya kabi vositalarni o‘rganadi. Shu bois pragmatik maqsad har doim stilistik shakl orqali amalga oshadi.

Misol tariqasida “Bozordagi bola” hikoyasi asosida tahlil qiladigan bo‘lsak, hikoya markazida oddiy bir holat – suvchi sotuvchi bolaning taqdiri turadi. Ammo yozuvchi bu holat orqali jamiyatdagi befarqlik, mehrsizlik, insoniy iztirob kabi chuqur g‘oyalarni ilgari suradi:

“Bolaning usti-boshi ancha yiprangan, u boshqa suv sotuvchi bolalardan ajralib turardi.”



Bu satrda oddiy tasviriy ifoda (usti-boshi yıprangan) stilistik vosita sifatida bolaning ahvolini ko'rsatadi. Pragmatik jihatdan bu o'quvchining rahm va hamdardlik tuyg'usini uyg'otadi. Yana bir o'rinda:

“Bolaning paqiri yerga tegay-tegay derdi, ammo yuzidan ter, ko'zidan iztirob to'kilgancha, oldinga zo'rg'a odimlardi.”

Bu jumlada takroriy ohang, metafora (“ko'zidan iztirob to'kildirdi”) va pauza (tegay-tegay derdi) yozuvchining pragmatik maqsadi – bolaning og'ir ruhiy holatini his qildirishga xizmat qilmoqda.

Safo bilan bolaning dialogi esa matndagi eng kuchli pragmatik nuqtadir:

“-Suv hech kimga kerak bo'lmaydi. Demak, biz bu yerdan ham ko'chib ketamiz. Eh, pulim ko'p bo'lsa edi. Onamni davolatishim uchun kerak. Balki menga farrosh bo'lib olishimga yordam berarsiz-a? “

Bu oddiy, ammo mazmunli so'zlar o'quvchiga mehr va yetimlik iztirobini his qildiradi. Stilistik jihatdan oddiy gaplar, sokin ohang va tabiiy so'zlar samimiyatni kuchaytirgan. Pragmatik jihatdan esa bu dialog insoniy mehrni qadrlashga chaqiriq bo'lib xizmat qiladi.

Hikoya davomida yozuvchi tazod, pauza, sodda tildagi kinoya va sokinlik usullarini qo'llaydi. Bozorning shovqin-suroniga qarshi bolaning sukunati - bu stilistik kontrast, pragmatik jihatdan esa ichki og'riqning jim hayqirig'idir.

Yozuvchining ushbu hikoyasidagi pragmatik jihat: muallifning maqsadi - bolalikning yetimligi, jamiyatdagi befarqlik orqali o'quvchida insoniy hamdardlikni uyg'otish bo'lsa, stilistik jihat: oddiy xalq tili, tabiiy so'zlar - soddalik orqali samimiylik yaratilgan. Asardagi pauza va jimlik - ruhiy og'riqni ifodalasa, dialog - qisqa, ammo hissiy ta'siri kuchli qilib yoritiladi.



Stilistika orqali pragmatik niyat – “mehr va vijdon uyg‘otish” to‘liq ro‘yobga chiqqan. Endi yozuvchining “Ona bo‘ri qasosi” hikoyasidan misollar keltiriladi.

Hikoyada pragmatik jihatdan ona bo‘rining bolasini himoya qilish uchun qilgan qasosiy harakati orqali muallif ona mehrining cheksizligi, tabiat va inson o‘rtasidagi o‘xshashlik, zo‘ravonlikning oqibati g‘oyalarini ilgari suradi.

Yozuvchining pragmatik niyati – o‘quvchini rahm-shafqat, hayvonotga mehr va insoniy mas‘uliyat haqida o‘ylantirish. Stilistik jihatdan olib qaraydigan bo‘lsak,:

“Ona bo‘ri qasos oldi. U jim, lekin yuragi g‘uvillab turgandi.”

Bu jumla orqali muallif bo‘rini “insoniy tuyg‘u bilan” tasvirlaydi.

Voqelikdagi yana bir vaziyatda esa, ovchining sovuqqonligi va bo‘rining issiq onalik hislari qarama-qarshi qo‘yilgan. Hayvonlarga insoniy sifat berish o‘quvchiga yaqinlik tuyg‘usini uyg‘otadi.

Stilistik vositalar (metafora, tazod, personifikatsiya) orqali yozuvchi rahm-shafqat mavzusini chuqur his qildiradi. Pragmatik maqsad – insonni tabiatga hurmat bilan qarashga undash, hamda epspressiv emotsiyalar tashish hisoblanadi..

Yozuvchining “Oqshomda oppoq nur” hikoyasida tabiat va inson taqdiri o‘xshashligi, yolg‘izlik, bardoshlilik, umid kabi mavzular ko‘tariladi. Yozuvchining maqsadi – o‘quvchida hayot saboqlari va sabrning qudrati haqida fikr uyg‘otish kabi pragmatik jihatlar ko‘zga tashlanadi. Stilistik jihatdan esa, daraxt - inson timsoli sifatida ishlatilgan, *“shamolda cho‘qqiga qarab egilgan daraxt”* -sabr va kuch ramzi, hamda *“daraxt ko‘z yoshi yomg‘irday yog‘ardi”* – hissiy chuqurlik yaratadi. Har bir tasvir bir ohangda, tinchlik bilan yozilgan — bu psixologik muvozanatni beradi.



Stilistik vositalar orqali muallif o'quvchida sokin iztirob va hayotga minnatdorlik hissini uyg'otadi. Pragmatik jihatdan bu hikoyadan – “hayot og'ir bo'lsa ham bardosh berish” g'oyasini yetkazadi.

Xulosa: Tursunmurod Ermatov hikoyalarida pragmatika va stilistika bir-birini to'ldiradi:

Pragmatika – yozuvchining ichki niyati, g'oyasi, hissiy ta'siri;

Stilistika – shu niyatni amalga oshiruvchi tildagi badiiy vositalar.

“Ona bo'ri qasosi” to'plamidagi hikoyalar – inson ruhiyatining eng nozik qatlamlarini tasvirlagan, pragmatika va stilistikaning uzviy birligiga asoslangan badiiy namunalardir. Muallif har bir asarda o'quvchi qalbiga bevosita murojaat qiladi: o'ylantiradi, hislantiradi, vijdon uyg'otadi. Shu orqali asarlarda pragmatik maqsad – o'quvchiga ta'sir o'tkazish, insoniylik va mehr tuyg'usini kuchaytirish; stilistik vositalar esa shu maqsadni amalga oshiruvchi badiiy qurol sifatida xizmat qiladi.

Ermatovning nasrida metafora, tazod, dialog, pauza, tasviriy detal, tabiiy so'z tanlovi kabi stilistik usullar o'quvchini hissiy holatga olib kiradi. Har bir hikoyada yozuvchining ovozi sodda, ammo chuqur; ifoda esa soddalik ortida yashiringan falsafiy teranlik bilan yo'g'rilgan.

Shunday qilib, “Ona bo'ri qasosi” to'plami pragmatika va stilistikaning uyg'unlashuvi natijasida yaratilgan badiiy tizimdir. Bu hikoyalar o'quvchini faqat hayotiy voqealar bilan emas, balki ma'naviy uyg'onish, mehr va insoniy qadriyatlar bilan to'ldiradi. Yozuvchi so'z vositasida nafaqat hikoya aytadi, balki o'quvchi qalbiga ta'sir qiladi, uni tarbiyalaydi, tozalaydi. Bu esa haqiqiy badiiy so'zning eng yuksak maqsadidir.



Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. Hakimov M. O'zbek pragmalolingvistikasi asoslari. – Toshkent “Akademnashr”, 2013.
2. Safarov Sh. Pragmalolingvistika. – Toshkent, 2008.
3. Ermatov T. Ona bo'ri qasosi. – Toshkent “Ijod-press”, 2019.